



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 3 (5)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**Farg‘ona davlat universiteti uchun  
MAXSUS SON**

**3**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

**MUNDARIJA**

<b>Abduvoxidov A.A.</b> Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
<b>Olimova N.X.</b> Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
<b>Эргашев А.Х.</b> Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
<b>Yulchiyev A.O.</b> Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
<b>Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A.</b> Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
<b>Karimov Sh.X.</b> Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
<b>O‘rinboyev D.B.</b> Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
<b>Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R.</b> Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
<b>Israilova M.V.</b> Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
<b>Turg‘unov M.M.</b> Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
<b>Raximova K.N.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
<b>Mannopova M.S.</b> Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
<b>Nematova Sh.E.</b> Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
<b>Rasulov U.A.</b> Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
<b>Raximov D.Sh.</b> Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
<b>Teshabayeva O.N.</b> Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
<b>Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K.</b> O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
<b>Jaksimova Z.R.</b> Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
<b>Yunusov A.R.</b> "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
<b>Юнусов Ш.</b> Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
<b>Xalmatjanova G.D.</b> Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
<b>Xomidov Q.Q.</b> O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
<b>Jo‘rayev H.Q.</b> Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari .....	114
<b>Xakimov D.R.</b> Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
<b>To‘xtasinova D.</b> Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
<b>Xolmatov B.A.</b> Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
<b>Jumakulov Z.I., Baxromov B.</b> O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
<b>To‘ychiyeva B.V.</b> Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
<b>Abdisamatov Sh.A.</b> Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
<b>Asraqulov A.S.</b> Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
<b>Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda</b> Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
<b>Muxtorov A.A., Mirzayev A.T.</b> Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
<b>Usibjonova G.U., Mannopova M.S.</b> Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

<b>Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N.</b> O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	<b>166</b>
<b>Ximmatova G.K., To‘xtasinova D.</b> Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	<b>170</b>
<b>Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T.</b> Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	<b>174</b>
<b>Xasanova R., Teshabayeva O.N.</b> Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	<b>180</b>
<b>Zufarova G.A.</b> Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	<b>184</b>
<b>Ergashev J.S.</b> "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish .....	<b>187</b>
<b>O‘rinov A.A.</b> Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	<b>192</b>
<b>Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A.</b> Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	<b>197</b>
<b>Саиджоновна З.Б.</b> Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	<b>201</b>
<b>Qodirov Z.E.</b> Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	<b>205</b>
<b>Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A.</b> Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	<b>210</b>
<b>Хайдаров Х.</b> Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	<b>214</b>
<b>Махамადийев М.М.</b> Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	<b>217</b>
<b>Madaminov G‘.M.</b> Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	<b>222</b>
<b>Nazirboyev D.D.</b> Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	<b>227</b>
<b>Хасанова С.И.</b> Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	<b>232</b>
<b>Teshaboyev B.A.</b> Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	<b>237</b>
<b>Mustafoyeva Z.A.</b> Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	<b>242</b>
<b>Xolmirzayev U.A., Muradova N.R.</b> Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	<b>245</b>
<b>Sadullayev R.P.</b> Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	<b>249</b>
<b>Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н.</b> Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	<b>258</b>
<b>Tursunov O.B.</b> Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash.....	<b>269</b>
<b>Sayitbayev Sh.D.</b> Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish.....	<b>274</b>
<b>Ibodulloyeva Z.S.</b> Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	<b>278</b>
<b>Salimova Z.S.</b> Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	<b>282</b>
<b>G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K.</b> Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	<b>286</b>
<b>Абдуллоев А.Ж.</b> Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	<b>289</b>
<b>Rahimova M.I.</b> O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	<b>294</b>
<b>Rahmatullayeva D.O.</b> Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	<b>299</b>
<b>Valikulov Sh.Z.</b> “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	<b>305</b>
<b>Турабекова Г.И.</b> Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	<b>312</b>
<b>Tajiboyev S.O.</b> Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	<b>316</b>
<b>Madaminov A.M.</b> Sanoat korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	<b>319</b>

3. Brandenburger, A., and B. Nalebuff. Co-opetition. New York: Doubleday, 1996.
4. OECD. Innovation, Collaboration and Economic Growth. Paris: OECD Publishing, 2018.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni .Toshkent, 2022.
6. Xolmirzayev, U. B. (2023). Bilimlar iqtisodiyoti shakllanishi evolyutsiyasini tavsiflovchi nazariy yondashuvlar. Green Economy and Development, 1(10), 664440.
7. Xolmirzayev, U. B., & Normatov, J. (2026). MAHALLIY BUDJETLARNI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA OCHIQLIKNI KUCHAYTIRISH. MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT, 4(2).
8. Madraimov, A., Ulug‘Muradova, N., Ravshanov, A., Kholmirzaev, U., Egamberdiyeva, I., & Nortoeva, U. (2025, April). Predicting Tourist Spending Behavior Using Bayesian Networks. In 2025 International Conference on Computational Innovations and Engineering Sustainability (ICCIES) (pp. 1-5). IEEE.

**UDK:336.02**

**EKOLOGIK VAZIYATNI BARQARORLASHTIRISHDA SOLIQ MEXANIZMIDAN SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI: XORIJ TAJRIBASI**

**МЕТОДОЛОГИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАЛОГОВЫХ МЕХАНИЗМОВ ДЛЯ СТАБИЛИЗАЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ: ИНОСТРАННЫЙ ОПЫТ**

**METHODOLOGY OF EFFECTIVE USE OF TAX MECHANISMS IN STABILIZING THE ECOLOGICAL SITUATION: FOREIGN EXPERIENCE**

**Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi,  
Mamun universitet dotsenti (PhD)

**Annatsiya**

Mazkur maqolada ekologik muammolarni hal etishda iqtisodiy instrumentlardan biri bo‘lgan ekologik soliqlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmlaridan samarali foydalanish metodologiyasini o‘rganish hamda rivojlangan davlatlar tajribasini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida tahlil, taqqoslash, statistik va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ekologik soliqlar atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish, resurslardan samarali foydalanishni rag‘batlantirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.

**Kalit so‘zlar:** ekologik soliq, ekologik siyosat, yashil iqtisodiyot, soliq mexanizmi, ekologik barqarorlik.

В данной статье анализируется значение экологических налогов как одного из экономических инструментов решения экологических проблем. Основной целью исследования является изучение методологии эффективного использования налогового механизма для стабилизации экологической ситуации, а также анализ опыта развитых зарубежных стран. В ходе исследования были использованы методы анализа, сравнительного анализа, статистического анализа и логического обобщения. Результаты исследования показывают, что экологические налоги играют важную роль в снижении загрязнения окружающей среды, стимулировании рационального использования природных ресурсов и обеспечении экономической устойчивости.

**Ключевые слова:** экологический налог, экологическая политика, зеленая экономика, налоговый механизм, экологическая устойчивость.

This article analyzes the importance of environmental taxes as one of the economic instruments for solving environmental problems. The main objective of the study is to examine the methodology for the effective use of tax mechanisms in stabilizing the environmental situation and to analyze the experience of developed foreign countries. During the research, methods such as analysis, comparative analysis, statistical analysis, and logical generalization were used. The results show that environmental taxes play an important role in reducing environmental pollution, encouraging the efficient use of natural resources, and ensuring economic sustainability.

**Keywords:** environmental tax, environmental policy, green economy, tax mechanism, environmental sustainability.

Ekologik soliqlar yoki yashil soliqlar deb ham ataluvchi atrof-muhitning buzilishi yoki zararlanishiga sabab bo‘luvchi faoliyat uchun olinadigan yig‘imlardir. Ushbu soliqlar "Ifloslovchi to‘laydi" tamoyiliga asoslanadi, bunda ifloslanish uchun mas‘ul bo‘lgan tashkilotlar tegishli xarajatlarni o‘z zimmalariga oladilar va shu bilan bu xarajatlarni o‘zlarining tovarlari va xizmatlari narxlariga kiritadilar. Yashil soliq namunasi bo‘lib atmosferaga zararli gaz bo‘lgan karbonat angidridni chiqaradigan sanoat va korxonalaridan undirish uchun mo‘ljallangan uglerod solig‘ini misol keltirishimiz mumkin. Bundan tashqari, Qo‘shma Shtatlarda yoqilg‘i samaradorligi bo‘yicha majburiy standartlarga javob bermaydigan yangi avtomobillarga nisbatan qo‘llaniladigan gaz solig‘i va belgilangan tovush chegaralaridan oshib ketadigan muassasalarga mo‘ljallangan shovqin soliqlarini misol qilib keltiriladi. Yashil soliqlarining qator afzalliklaridan, ular ifloslanishni cheklash, davlat daromadlarini ko‘paytirish va ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirishni rag‘batlantirishdagi samaradorligini qayd etish mumkin.

Xorijiy davlatlarda korxonalarining yashil energiyadan foydalanish amaliyoti, xizmat ko‘rsatish sohasida yashil energiyani joriy etish bilan bog‘liq nazariy-uslubiy masalalar ko‘pgina olimlar va tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, A.Borghesi, M.Milano, S Bilgen, K.Kaygusuz, A.Sari, N.Quintana, F.Van der Kooy, M.D.Van de Rhee, G.P.Voshol, R.Verpoorte, A.Dhar, M.A.Naeth, I.Dincer, E.Martinot, L.Mundaca, L.Nei, A.Markandya, P.Hennicke, J.Yan, A.Yushchenko, A.Patel I.Akbashev, Yu.Shadimetovlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar [1].

MDH davlatlari olimlaridan bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borganlar sifatida N.V.Pakhomova, K.K.Rikhter, G.B.Malyshkov, E.A.Lyaskovskaya, K.A.Grigoreva, V.A.Poxvoshev, M.M.Davletova, N.N.Yashalova, V.Podgorniy, F.A.Shulenbaeva J.B.Smagulova, A.Ye.Muxanova, G.I.Musaevlar va boshqalarni o‘rsatish mumkin [2]. O‘zbek olimlaridan qayta tiklanadigan energiya manbalarini iqtisodiyotdagi ahamiyati va uni rivojlantirish yo‘llari bo‘yicha A.J. Abdulloyev, M.Mirzaxmedov, E.Yuldashev, A.Ikramov, T.Bekmurodov, D.Yavmutov va boshqalar [3] mahalliy olimlardan T.K. Iminov, A.V. Vahobov, T.Z. Teshaboyev, M.T. Bo‘taboyevlarning tadqiqotlarida “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning xorijiy tajribalari, sanoatni rivojlantirishda iqtisodiy-ekologik muammolar kabi masalalar atroflicha o‘rganilgan mamlakatimizni yashil iqtisodiyotga o‘tishida iqtisodiyotning tarmoq va sohalarida yashil energiya tizimini joriy etish hamda resurs salohiyatidan samarali foydalanish muammolariga oid muhim masalalar tadqiq etilgan. Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu masala yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish sharoitida ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasini hududlarni barqaror rivojlantirishda ekologik va iqtisodiy jihatdan energiya tejankor ishlab chiqarish va innovatsiyalardan foydalanish amaliyotini yanada kengaytirish, soliq imtiyozlarining berilishi, hududlarda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda atrof-muhit muhofazasi masalalarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini, ularni baholash metodologiyasini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda zamonaviy rivojlanish tendensiyasiga ko‘ra mamlakatimiz hududida yashil soliqlar, shuningdek, ekologik soliqlar deb ham ataluvchi tushuncha paydo bo‘lgan bo‘lib, bu atrof-muhitni bevosita yoki bilvosita himoya qilish maqsadida joriy etiladigan soliqlardan

hisoblanadi. Xalqaro soliq hujjatlari byurosi tomonidan nashr etilgan Xalqaro soliq lug‘atiga ko‘ra, bu ifloslanishning oldini olish yoki atrof-muhitni muhofaza qilishga sarmoya kiritadigan soliq to‘lovchilar uchun soliq imtiyozlarini yoki ifloslantiruvchi sanoat va ifloslantiruvchi moddalardan foydalanish uchun soliq yig‘ishni anglatishi bo‘yicha bir necha qarashlar mavjud. 1970-yillardan boshlab Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) mamlakatlari resurslar solig‘i, chiqindi solig‘i, va suv ifloslanishi solig‘i, karbonat angidrid solig‘i, oltingugurt solig‘i va shunga o‘xshab bir necha ekologik soliqlarni joriy qildilar hamda atrof-muhitni muhofaza qilishda iqtisodiy vositalarning ekologik siyosatini qo‘llashga harakat qildilar. Rivojlangan mamlakatlarda yashil soliqqa tortishning afzalligi shundaki, u nafaqat toza energiyani rivojlantirishni samarali rag‘batlantirishi, balki korxonalariga ilg‘or energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etishga ham yordam berishi mumkin. Hozirgi vaqtda bir qator soliq islohotlaridan so‘ng ba‘zi rivojlangan mamlakatlar yashil soliq tizimini shakllantirdilar. Yaponiya asta-sekin atrof-muhit solig‘i va resurslar solig‘i ustunlik qiladigan ekologik soliq tizimini, Shvetsiya karbonat angidrid solig‘i, oltingugurt dioksidi va azot dioksidi solig‘i ustunlik qiladigan ekologik soliq tizimini, Daniya esa resurslar solig‘i va atrof-muhit solig‘i ustunlik qiladigan yashil soliq tizimini shakllantirdi. Xitoyda ifloslanish uchun to‘lov, yerdan foydalanish solig‘i, shahar qurilishi va texnik xizmat ko‘rsatish solig‘i, resurslar solig‘i, transport vositalarini sotib olish solig‘i, shaharlarni texnik xizmat ko‘rsatish va qurilish solig‘i, shahar yerlaridan foydalanish solig‘i hamda transport vositalari va kemalar solig‘i yashil soliqning o‘xshash funksiyalariga ega. Yashil soliqlar budjetni to‘ldirish vositasi hamda ijtimoiy-iqtisodiy loyihalar va davlat dasturlarini amalga oshirish uchun byudjet mablag‘larini qayta taqsimlash imkoniyatidir.

Bugungi kunda energiya tanqisligi butun insoniyat duch kelayotgan eng muhim global muammolardan biri hisoblanadi. Neft, tabiiy gaz va boshqa qazilma yoqilg‘ilar kabi an’anaviy manbalar asta-sekin o‘z dolzarbligini yo‘qotib, narxi keskin oshib bormoqda hamda ekologiyaga jiddiy zarar yetkazmoqda. Shu sababli, muqobil energiya manbalaridan foydalanish tobora dolzarb bo‘lib, quyosh panellari, shamol turbinalari, gidroelektr stansiyalari va bioreaktorlar keng tarqalib, energetika sohasining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Xususan, “yashil energiya konsepsiyasi 2006-yil noyabr oyida qayta tiklanadigan energiya bo‘yicha standart taklif dasturi sifatida ilgari surilgan. Ushbu tashabbus qisqacha SOP yoki RESOP nomi bilan tanilgan bo‘lib, u gidroenergetika, shamol generatorlari, quyosh panellari (PV) hamda biomassa loyihalari uchun tariflarni belgilash va 20 yillik kafolatlangan ta‘minot tizimini joriy etishni nazarda tutgan” [4].

Shuningdek, “Ontario Yashil energiya qonuni (GEA), rasmiy nomi bilan 2009-yil Yashil energiya va Yashil iqtisodiyot to‘g‘risidagi qonun, qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarishni kengaytirish hamda energiya samaradorligini oshirish maqsadida 2009-yil 23-fevralda Ontario qonunchiligiga kiritilgan. “Yashil” atamasi odatda ekologik toza va ifloslanishdan holi dunyoni tasavvur qilishga undaydi” [5]. Shu bois, yashil energiya tushunchasi atrof-muhitga minimal yoki umuman salbiy ta‘sir ko‘rsatmaydigan hamda tiklanish xususiyatiga ega tabiiy resurslardan energiya olish g‘oyasini ifodalaydi. Bunga quyosh nuri, shamol, yomg‘ir, suv oqimlari, o‘simliklar, suv o‘tlari va geotermal issiqlik kabi manbalar kiradi. Ushbu resurslar qayta tiklanadigan bo‘lib, ular tabiiy jarayonlar natijasida muntazam ravishda yangilanib boradi. Yashil energiya, shuningdek, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan biri sifatida tanilgan. Ushbu energiya manbalari tarixan cheksiz va tunganmas deb hisoblanadi. Uning asosiy tamoyili tabiatda doimiy ravishda ro‘y beradigan jarayonlardan energiya olish va bu energiyani texnologik sohada samarali tarzda foydalanishdan iboratdir. Yashil energiya qayta tiklanadigan yoki tugamaydigan tabiiy resurslardan olinadigan energiyadir. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishning asosiy prinsipi, uni atrof-muhitdagi tabiiy jarayonlardan yoki qayta tiklanadigan organik resurslardan olish va uni texnologik jarayonlarda samarali tarzda qo‘llash imkoniyatini yaratishdir.

“Yashil energiya va qayta tiklanadigan energiya manbalari haqida olimlar turli nuqtai nazardan keng qamrovli fikrlar bildirganlar. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo‘yicha xorijiy mamlakatlarda ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlar turli mamlakatlarda yashil energiya texnologiyalarining rivojlanishi, samaradorligi va atrof-muhitga ta‘sirini o‘rganishga

qaratilgan. Masalan, italiyalik iqtisodchi olim Andrea Borghesi o‘zining «Qayta tiklanuvchi energiya siyosatining intensiv rag‘batlantirish mexanizmlari» nomli tadqiqotida qayta tiklanuvchi energetikani istiqbolli va zamonaviy energetika sifatida yoritib bergan. Olimning tadqiqotida energetikaning ushbu sohasini rivojlantirish bo‘yicha intensiv mexanizmlar ishlab chiqilgan” [6].

“Yashil energiya manbalari texnologiya va atrof-muhitga ta‘siriga qarab qayta tiklanadigan va toza energiya manbalari, jumladan quyosh, shamol, geotermal, gidroelektr, suv oqimi va okean energiyasi va biomassaga bo‘linadi” [7]. “Yashil energiya deganda tabiiy resurslardan foydalangan holda ishlab chiqariladigan har qanday energiya turi tushuniladi” [8]. “Yashil energiya va qayta tiklanadigan energiya o‘rtasida nozik farqlar mavjudligiga qaramay, u ko‘pincha qayta tiklanadigan energiya manbalaridan kelib chiqadi. Ushbu energiya manbalaridan foydalanishning hal qiluvchi jihati ularning atrof-muhitga, masalan, issiqxona gazlarini chiqarish orqali salbiy ta‘sir ko‘rsatmasligini ta‘minlashdir. Yashil energiya quyosh, shamol, gidroelektr, geotermal, suv oqimi va okean energiyasi, biomassa va bioyoqilg‘i kabi qayta tiklanadigan energiya manbalaridan tez-tez olinadigan energiya turidir. Ushbu texnologiyalarning har biri, quyosh panellari kabi quyosh energiyasidan foydalanish yoki shamol, suv oqimi orqali energiya ishlab chiqarish yoki okean yuzasi to‘lqinlaridan energiya olish yo‘li bilan boshqacha ishlaydi” [9].

So‘nggi o‘n yil ichida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va yangi texnologiyalar “yashil, toza va qayta tiklanadigan energiya manbalari o‘rtasidagi asosiy farqlarni aniqladi. Turli mualliflar bu tushunchalarni bir-birining o‘rnida ishlatishga moyil; ammo, resurs yangilanishi mumkin” [10].

Yashil energiya — bu quyosh kabi tabiiy resurslardan foydalangan holda ishlab chiqariladigan energiya. Qayta tiklanadigan energiya quyosh energiyasi, gidroenergetika va shamol energetikasi kabi tugamaydigan manbalardan kelib chiqadi, ammo toza energiya atmosferaga ifloslantiruvchi moddalarni (karbonat angidrid) chiqarmaydi. Qayta tiklanadigan energiya boshqa energiya turlariga (masalan, gidroelektr to‘g‘oni) o‘xshash degan umumiy fikrga qaramay, ilmiy hamjamiyat bu nozik farqlar haqida hali ham bahslashmoqda.

“Yashil energiya barqaror rivojlanishga erishish uchun asos bo‘lib, atrof-muhitga zarar yetkazmaydi. Bu qayta tiklanadigan energiya manbai, lekin yashil energiya sifatida qaralishi uchun u atrof-muhitga nol ta‘sir ko‘rsatishi kerak, ya‘ni u hech qanday issiqxona gazlarini chiqarmaydi yoki juda oz miqdorda” [11]. Shu sababli, “qayta tiklanadigan energiya sektori tomonidan ishlatiladigan barcha manbalar ham ekologik va yashil emas” [12]. Misol uchun, “barqaror boshqariladigan o‘rmonlardan olingan organik materiallarni yoqish qayta tiklanadigan manba bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, yonish jarayonida CO<sub>2</sub> emissiyasi ishlab chiqarilgan energiyaning ekologik jihatdan qulay bo‘lishini kamaytiradi. Yana bir misol, neft qumlari uchun qazib olish jarayoni qayta ishlash jarayonida katta miqdordagi tabiiy gazni yoqishni talab qiladi. Quyosh va shamol energiyasi kabi ba‘zi RElar odamlarning uy xo‘jaliklarida kichik miqyosda yaratilishi mumkin” [13] yoki sanoat sharoitida kattaroq miqyosda ishlab chiqarilishi mumkin.

Yashil energiya har doim ekologik toza va qayta tiklanadigan deb hisoblanadi. Bu energiya manbalari tabiatan yangilanishi mumkin bo‘lgan resurslardan olinadi, masalan, quyosh nuri, shamol, geotermal issiqlik va biomassa kabi tabiiy jarayonlardan foydalaniladi. Biroq, qayta tiklanadigan energiyaning ba‘zi shakllari hali ham ekologik jihatdan ba‘zi kamchiliklarga ega bo‘lishi mumkin. Bugun yangi O‘zbekiston energetika tizimida ham mamlakat energiya xavfsizligini ta‘minlash, energiya samaradorligini oshirish va iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror energiya bilan ta‘minlash borasida ulkan loyihalar amalga oshirilmoqda.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida yashil energiya va qayta tiklangan energiyaning farqini jadvalga keltiramiz.

Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning energiya sig‘imini yanada qisqartirish, mahsulot tannaxini kamaytirish va “yashil energetika” siyosatini amalga oshirish, ya‘ni qayta tiklanadigan energiya manbalaridan, jumladan, quyosh, shamol va suv energiyasidan foydalanishni kengaytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Natijasida quyosh energiyasidan foydalanish bo‘yicha zamonaviy texnologiya va qurilmalar hayotga faol tatbiq etila boshladi. Dunyoda keyingi yillarda quyosh energiyasidan foydalanish bo‘yicha Germaniya, Ispaniya, Yaponiya yetakchilik qilmoqda.

Yashil energiya va qayta tiklanuvchi energiyaning farqini ko‘rsatuvchi konseptual jadval [14]

Xususiyatlari	Yashil energiya	Qayta tiklanadigan energiya
Ta’rif:	Yashil energiya tabiiy manbalardan olinadigan va atrof-muhitni ifloslantirmaydigan energiyani anglatadi. Bu atrof-muhitga minimal ta’sir ko‘rsatadigan jarayonlardan olingan toza energiya, ayniqsa uglerod emissiyasi nuqtai nazaridan.	Qayta tiklanadigan energiya insonning vaqt miqyosida tabiiy ravishda to‘ldiriladigan manbalardan ishlab chiqarilgan energiyani anglatadi. Bu resurslar tugamaydi, chunki ular tabiatda doimiy mavjud.
Fokusi	Yashil energiyaning asosiy e’tibori atrof-muhitning foydasiga qaratilgan. Bu qayta tiklanadigan va ifloslanmaydigan energiya manbalariga ishora qiladi.	Qayta tiklanadigan energiyaning asosiy e’tibori barqarorlik va mavjudlikka qaratilgan. Bu energiya manbai qayta tiklanishi va bitmas-tuganmas ekanligini ta’kidlaydi.
Misollar:	Quyosh energiyasi, shamol energiyasi, gidroenergetika va geotermal energiya. Ular "yashil" deb hisoblanadi, chunki ular atrof-muhitga minimal salbiy ta’sir ko‘rsatadi va foydalanish paytida juda kam yoki umuman ifloslanish hosil qilmaydi.	Quyosh energiyasi, shamol energiyasi, gidroenergetika, biomassa va geotermal energiya. Biroq, qayta tiklanadigan energiyaning hammasi ham yashil emas.
Atrof-muhitga ta’siri:	Qayta tiklanadigan va atrof-muhitga minimal ta’sir ko‘rsatishi kerak (past ifloslanish va emissiya).	Qayta tiklanadigan energiya manbaning mavjudligiga qaratilgan, ammo jarayon hali ham ba’zi ifloslanishlarni o‘z ichiga olishi mumkin (masalan, biomassa yoki yirik gidroenergetika).
Qo‘llash doirasi:	Yashil energiya: qayta tiklanadigan energiyaning kichik to‘plami. Barcha yashil energiya qayta tiklanadigan energiya hisoblanadi, lekin hamma ham qayta tiklanadigan energiya yashil hisoblanmaydi.	Qayta tiklanadigan energiya: Yashil energiya, shuningdek, atrof-muhit uchun to‘liq bo‘lmasligi mumkin bo‘lgan manbalarni (masalan, biomassa yoki gidroenergetikaning ba’zi shakllari) o‘z ichiga oladi.

Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning energiya sig‘imini yanada qisqartirish, mahsulot tannarxini kamaytirish va “yashil energetika” siyosatini amalga oshirish, ya’ni qayta tiklanadigan energiya manbalaridan, jumladan, quyosh, shamol va suv energiyasidan foydalanishni kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Natijasida quyosh energiyasidan foydalanish bo‘yicha zamonaviy texnologiya va qurilmalar hayotga faol tatbiq etila boshladi. Dunyoda keyingi yillarda quyosh energiyasidan foydalanish bo‘yicha Germaniya, Ispaniya, Yaponiya yetakchilik qilmoqda.

Yashil energiya mahalliy qishloq jamoalarining energiya talabini iqtisodiy va barqaror yo‘llar bilan qondirishi mumkin. Chunki yashil energiyaga kirish toza, arzon va ishonchli energiyaga kirishni anglatadi. Hozirgi kunda, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar yashil energiyadan foydalanishni

kengaytirish uchun jiddiy tashabbus ko‘rsatmoqda. Masalan, eng asosiy energiya ehtiyojlarini qondirishning jozibali shakli bo‘lgan quyosh (PV) ni o‘rnatish; boshqa tomondan, gidroenergetika va bioenergiya ko‘proq mahalliy energiya talabini qondirishni ta‘minlaydi. Ba‘zi ilmiy asoslangan ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda bir yilda yerning bir kvadrat metr sirtiga o‘rtacha 1600 kilovatt soat quyosh energiyasi tushadi. Bu ko‘rsatkich Yevropa mamlakatlarida, masalan, Yekaterinburg shahri (Rossiya)da 1044 kilovatt soatni tashkil etadi. Agar zamonaviy foto elektrik stansiyalar orqali ushbu quyosh energiyasining 15 foizi elektr energiyasiga aylantirilsa, mamlakatimizda bir kvadrat metr quyosh paneli orqali yiliga 200-240 kilovatt soat, Yekaterinburgda esa 157 kilovatt soat elektr energiyasini ishlab chiqarish mumkin.

O‘zbekiston iqlim sharoitida yozgi davrda 1 megavatt elektr quvvati olish uchun 6000 kvadrat metr quyosh panellarini o‘rnatish talab qilinsa, Yekaterinburg shahri sharoitida esa 12000 kvadrat metr yuzli quyosh panellari kerak bo‘ladi. Demak, bundan anglash mumkinki, yurtimizning janubiy hududida quyosh fotoelektr stansiyasi qurilishi uchun xarajat ham ikki barobargacha kam bo‘ladi. Umuman, barcha turdagi quyosh qurilmalari mamlakatimiz hududida yuqori samara bilan ishlaydi.

Yashil energiya barqaror rivojlanishga erishishning asosiy vositasi bo‘lsa-da, agar samarali siyosat atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni bir zumda ko‘rib chiqish uchun ishlab chiqilmasa, istalgan natijaga erishib bo‘lmaydi. Aniqrog‘i, yashil energiya barqaror rivojlanish uchun juda muhim, chunki u global miqyosda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ekologik ziddiyatlarni kamaytirish qobiliyatiga ega. Shuning uchun barqaror yashil energiya strategiyalarini rejalashtirish juda muhim.

Olimlarning fikricha, “O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishdagi to‘siqlarni quyidagicha baholashadi:

- Uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining yo‘qligi.
- Foydali belgilarning yetishmasligi.
- “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to‘g‘risida”gi qonun yaqinda qabul qilingan, biroq normativ-huquqiy baza hali shakllanmagan.
- Davlat elektr kompaniyasining monopoliyasi hali ham bo‘linmagan.
- Eskirgan energetika infratuzilmasi.
- Energetika sektor sohasida moliyalashtirish va investitsiyalar yetishmasligi. Elektr narxining pastligi.
- Qayta tiklanadigan energiya texnologiyalari bo‘yicha malakali kadrlar yetishmasligi.
- Qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashning aniq mexanizmlarining yo‘qligi” [15].

- “Yashil energiyaga o‘tish jarayonida ish o‘rinlarini yaratish rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun eng ijobiy natijalardan biridir. Shuningdek, bu ish bilan ta‘minlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, chunki ba‘zi odamlar o‘tish davrida o‘z ishlarini yo‘qotadilar, ammo yashil energiyaning bandlikka ijobiy ta‘sirining ahamiyati salbiy oqibatlardan ustun turadi. Frondel va boshqa” [16]. Barbier tomonidan olib borilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, “Global Yashil yangi kelishuv uzoq muddatda ba‘zi sektorlarda, masalan, past emissiyasi intensiv transport va tegishli tarmoqlarda 34 milliondan ortiq ish o‘rinlarini ochishi mumkin” [17].

Tadqiqot usullari:

Ekologik soliqlarning nazariy asoslarini o‘rganishda asosan analitik tahlil usulidan foydalanilgan.

Taqqoslash usuli – turli mamlakatlarda qo‘llanilayotgan ekologik soliq tizimlarini solishtirishda.

Statistik tahlil usuli – ekologik soliqlarning iqtisodiy va ekologik natijalarini baholashda.

Mantiqiy umumlashtirish usuli – olingan natijalar asosida xulosalar chiqarishda.

Tadqiqotda xalqaro tashkilotlar, ilmiy maqolalar hamda rivojlangan davlatlar tajribasi asosida olingan ma‘lumotlardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ekologik soliqlar atrof-muhitni muhofaza qilishda muhim iqtisodiy instrument hisoblanadi. Ular asosan quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llaniladi:

Atmosfera ifloslanishini kamaytirish soliqlari Sanoat korxonalarini tomonidan chiqariladigan zararli gazlar uchun soliq joriy etiladi.

Energiya soliqlari Energiya resurslaridan foydalanish uchun soliq stavkalarini belgilanadi.

Transport soliqlari Transport vositalarining ekologik darajasi va yoqilg‘i sarfiga qarab soliq miqdori belgilanadi.

Chiqindilar uchun soliqlar korxonalar tomonidan chiqariladigan chiqindilar hajmiga qarab to‘lovlar undiriladi.

Xorij tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ekologik soliqlar quyidagi natijalarga olib keladi:

- atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish;
- energiya resurslaridan samarali foydalanish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tishni rag‘batlantirish;
- ekologik innovatsiyalarni rivojlantirish.

Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ekologik soliqlar davlat byudjeti daromadlarining muhim qismini tashkil etadi hamda ekologik siyosatni amalga oshirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Xorijiy tajribani tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ekologik soliqlarni samarali joriy etish uchun bir qator shartlar mavjud:

- ekologik soliqlarning aniq huquqiy asoslarini yaratish;
- soliq stavkalarini ekologik zarar darajasiga mos ravishda belgilash;
- ekologik monitoring tizimini takomillashtirish;
- ekologik toza texnologiyalarni qo‘llayotgan korxonalar uchun soliq imtiyozlarini joriy etish.

O‘zbekiston sharoitida ham ekologik soliqlarni takomillashtirish orqali ekologik muammolarni kamaytirish mumkin. Bunda rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish va milliy iqtisodiyot xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekologik soliqlar ekologik barqarorlikni ta‘minlashda samarali iqtisodiy instrument hisoblanadi. Ular korxonalarini atrof-muhitga zarar yetkazuvchi faoliyatni kamaytirishga undaydi hamda ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Xorijiy tajribani hisobga olgan holda ekologik soliq mexanizmlarini takomillashtirish O‘zbekiston uchun ham dolzarb vazifalardan biridir.

Ekologik soliqlar — bu atrof-muhitga zarar yetkazuvchi faoliyat uchun joriy etiladigan iqtisodiy instrument bo‘lib, u ifloslanish xarajatlarini ishlab chiqaruvchi yoki iste‘molchiga yuklash tamoyiliga asoslanadi.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan OECD, ekologik soliqlarni barqaror rivojlanish siyosatining muhim elementi sifatida ko‘radi. Ularning maqsadi:

- ifloslanish darajasini kamaytirish
- ekologik toza texnologiyalarni rag‘batlantirish
- davlat byudjeti daromadlarini oshirish
- barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash

Tadqiqotlarga ko‘ra, ekologik soliqlar ifloslantiruvchi faoliyatga moliyaviy bosim yaratib, korxonalarini ekologik innovatsiyalarni joriy etishga undaydi.

2. OECD davlatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, OECD mamlakatlarida ekologik soliqlar quyidagi asosiy turlarga bo‘linadi:

1. Energiya soliqlari
2. Transport soliqlari
3. Ifloslanish soliqlari
4. Resurslardan foydalanish soliqlari

OECD davlatlarida ekologik soliqlar ekologik siyosatning muhim vositasi bo‘lib, ular ko‘pincha boshqa fiskal islohotlar bilan birga amalga oshiriladi.

Yevropa mamlakatlarida ekologik soliqlar 1990-yillardan boshlab keng joriy etilgan.

O‘zbekiston uchun takliflar xorijiy tajribaga asoslanib quyidagi takliflar berish mumkin:

1. ekologik soliqlar stavkalarini ifloslanish darajasiga bog‘lash
2. ekologik monitoring tizimini takomillashtirish

3. yashil texnologiyalar uchun soliq imtiyozlari berish
4. ekologik soliqlardan tushgan mablag‘larni ekologik loyihalarga yo‘naltirish
5. karbon soliqlarini bosqichma-bosqich joriy etish.

Ekologik yo‘naltirilgan soliqlarning amaldagi tizimini va tegishli to‘lov tizimini tahlil qilish qonunchilik darajasida tabiiy resurslar uchun to‘lovlarni tartibga solishning yagona yo‘nalishi mavjud emas degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari atrof-muhitni boshqarishning asosiy tamoyilini — tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to‘lov tamoyilini hisobga olishlari kerak, bu tabiiy resurslar uchun to‘lovlarni belgilash va undirish tartibini belgilaydi.

Tabiiy resurslar uchun to‘lovning shaffof va tushunarli tizimini yo‘lga qo‘yish ekologik salohiyatdan puxta foydalanishni rag‘batlantirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi, shuningdek, ekologik muvozanatni saqlash va tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy mas‘uliyatini ta‘minlashning asosiy omili hisoblanadi. O‘zbekistonda davlat moliyasini boshqarishning yangi samarali vosita va usullaridan foydalanish asosida moliyaviy xavfsizlikni ta‘minlashda soliq intizomini mustahkamlash metodologiyasi va umumiy nazariyasini rivojlantirish zaruriyati paydo bo‘lmoqda.

Bu borada iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishi sifatida “soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirish”, “soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish, insofli soliq to‘lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini kuchaytirish”, “Soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi vazifalari ijrosi yakunida soliq majburiyatini ixtiyoriy bajarish darajasini 90 foizgacha yetkazish lozimligi” ta‘kidlandi. Bular davlat tomonidan samarali soliq siyosatini yuritish bo‘yicha strategik rejalashtirish va prognozlashtirish vazifalarini belgilab berdi.

Mazkur vazifalar byudjet daromadlari barqarorligini ta‘minlash, soliq ma‘muriyatchiligi samarali tizimini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish zaruriyatini ko‘rsatib beradi. O‘zbekistonda jahon andozalariga mos samarali soliq tizimiga tayanuvchi mustahkam iqtisodiy asos hamda real natijaga asoslangan istiqbolli taraqqiyot yo‘nalishlarini belgilash, soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirishga jiddiy ahamiyat berilmoqda.

Soliq yukini pasaytirib borish, soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi uning nomutanosib taqsimlanishini bartaraf etish, soliq ma‘muriyatchiligidagi nomukammalliklar tufayli soliqlarni hisoblash va to‘lashdagi muammolarni bartaraf etish, soliq to‘lovchilar bilan soliq organlari o‘rtasidagi iyerarxar munosabatlarga yo‘l qo‘ymaslik va ularning “hamkorlikda o‘sishi”ni ta‘minlashga erishish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga to‘sqinlik qiladigan asossiz soliq tekshiruvlarini bartaraf etish va soliq maslahati ko‘rsatish hamda samarali nazorat tadbirlariga o‘tish vazifasi belgilandi.

O‘zbekistonda samarali soliq ma‘muriyatchiligi tizimini shakllantirish metodologiyasini yanada aniq tarzda ifodalab quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari asoslangan yangi soliq siyosati asosida soliq to‘lovchilar uchun yaratilgan sharoit va iqtisodiy bazis, rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini hisobga olgan holda “samarali solik ma‘muriyatchiligi”, “soliq ma‘muriyatchiligi samaradorligi mezonlari va ko‘rsatkichlari” tushunchalari mazmuniga tizimli yondashuvga asoslangan yangi ta‘rif beriladi; Soliq amaliyoti tadqiqi asosida, samarali soliq ma‘muriyatchiligini shakllantirishning tizimli muammolarini aniqlanadi va ularni hal etishga oid takliflar tizimi tavsiya etiladi.

Solik bazasini kengaytirish va soliq to‘lovchilar moliyaviy imkoniyatlari tizimidagi hozirgi zamon o‘zgarishlarini hisobga olgan holda samarali solik ma‘muriyatchiligi asosida soliq tulovchilarning soliq organlari faoliyati sifatidan ko‘nikishlarini kompleks baholash uslubiyoti taklif etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risi”dagi PF-4947-son Farmoni. — [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5837-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi “Soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ4389-son qaroriga 1-ilova ”Soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi”ning 3-bob, 3.3-bandi.
4. Алиев А.М. Совершенствование механизма налогообложения / автореферат на соискание ученой степени к.э.н. — М.: 2011. — 21 с.
5. Савченко Н.Б. Совершенствование платежной дисциплины в механизме налогообложения предпринимательской деятельности / автореферат на соискание ученой степени к.э.н. — М.: 2011. — 27 с.
6. Шлянкевич С.В. Усиление контрольной функции налогов в современном механизме налогообложения / автореферат на соискание ученой степени к.э.н. — М.: 2012. — 29 с.
7. Алиев Х.Б. Развитие налогового контроля в РФ / автореферат на соискание ученой степени к.э.н. — М.: 2012. — 23 с
8. Vahobov A., Jo‘rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. — T.: Sharq, 2019. — 448 b. 9. Niyazmetov I. “Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta‘minlash” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi Avtoreferati. T.: BMA, 2018.-70b.